



Volume: 3 Issue: 1

QUSXANATOV FLORASI

Serekeeva G.A., Primbetova R.

Qoraqalpog' davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada Qoraqalpog'istondagi Qusxanatov florasining o'simlik turlari o'rganilgan va uni o'rgangan tadqiqotchilarning ilmiy ishlari tahlil qilingan.

Kalit so'z: flora, turkum, o'simliklar qoplami, o'simliklar oilasi, sistematik guruh.

Qoldiq tog'lar florasini o'rganish hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biridir. Qoraqalpog'iston hududida Sulton Uvays tog'i, Beltov, Qushxonatov, Qirontov va bir qancha qoldiq tog'lar joylashgan.

Jumladan, Qusxanatov Bo'zatov tumanida joylashgan bo'lib, umumiy maydoni 240 km², eni 2 km, eng baland joyi 130 m dan iborat. Qushxonatov atrofida esa, Suyunishon qabristoni ham qo'yilgan.

O'lkamizning florasini va o'simliklar qoplami haqida bir qancha olimlarning ilmiy ishlarida ko'rishimiz mumkin X. Pander va E.Eversman (1820-1821), M.G.Popov (1915), K.D. Muravlyanskiy (1934), A.S. Poretskiy (1934), A.S. Poretskiy, F.N. Rusanov, K.S. Afanasevlar (1936), O.N. Bondarenko (1964), R.A. Abdiraxmanov (1969), B.Sh. Sherbayev (1978) B.S. Saribayev (1973), S.E. Erejepov (1978), O.T. To'remuratov (1978), O.N. Korovina A. Baxiev va boshqalar (1982), (1983) va yana boshqa olimlar.

Mashhur botanik olim M.G. Popov O'rta Osiyo, shu jumladan, Qizilqumda joylashgan qoldiq tog'larning florasiga juda katta e'tibor bergan. Sulton Uvays tog'i o'simliklarini o'rganish maqsadida ilmiy safarga keladi va ko'plab gerbariy materiallari to'playdi. 1915-yilda "Ботанико-географический очерк гор Султануиздаг" nomli ilmiy maqolasi chop etiladi.

R.A. Abdurahmonov (1969) Sulton Uvays va Ariston tog'larining o'simliklar qoplami bilan birga florasini ham o'rgangan. Sulton Uvays florasida 32 oila, 132 turkumga ega bo'lgan 249 tur, Aristontov florasini uchun 35 oila, 158 turkum 247 turga ega bo'lgan o'simliklar ro'yxatini keltirgan.

B.Sh.Sherbayev (1978) Qoraqalpog'iston florasida joylashgan qoldiq tog'larning florasini o'rganish maqsadida ko'p yillik ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Sulton Uvays florasini uchun 51 oila, 226 turkum, 444 tur. Qushxonatog' florasida 44 oila, 144 turkum, 219 o'simlik turlarini keltirgan bo'lsa, Beltov florasida esa 35 oila, 133 turkum, 211 o'simlik turlari haqida olimimiz ta'kidlagan.

2020-2021 yillar davomida Qusxanatov florasini o'rganish maqsadida ko'plab ilmiy adabiyotlar bilan tanishib chiqildi va gerbariy materiallari to'plandi.



Qushxonatog' florasi sistematik guruhlardan yopiq urug'lilar yoki (Magnoliophyta) 227 tur umumiy floraning 98,7%, Ochiq urug'lilar (Pinophyta) 1 oila va 1 turkumga mansub bo'lgan 3 turni (1,3%) egallaydi.

Ikki pallali o'simliklar (Magnoliopsida) 29 oilaga ega bo'lgan 127 turkum, 191 turdan (82,7%), bir pallali o'simliklar (Liliopsida) esa 15 oila 32 turkum, 39 turdan (16%) iborat. Qushxonatog' florasida 45 oila, 129 turkumga ega bo'lgan 230 tur aniqlandi.

Qushxonatog' florasidagi polimorf oilalardan Chenopodiaceae (45 tur), Asteraceae (34), Brassicaceae (23), Poaceae (20), Fabaceae (14), Boraginaceae (11) yuqori o'rinni egallaydi. Turkumlardan esa Calligonum (9 tur umumiy florada 25,7%), Salsola (8 tur, 22,8%), Astragalus (8 tur, 22,8%), Lepidium (4 tur, 11,4%), Strigosella (3 tur, 8,5%), Anabasis (3 tur, 8,5%) florada yuqori ko'rsatkichni namoyon qildi.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi olimlarning ilmiy ishlaridan kelib chiqqan holda boshqa Qusxonatov florasini har tomonlama o'rganish, kamyob, endem va subendem o'simliklarning tarqalish areallarini aniqlash hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бахиев А., Бутов К.Н., Даулетмуратов С. Лекарственные растения Каракалпакии. - Ташкент.: ФАН. - 1983.
2. Даулетмуратов С.Д. Ресурсы лекарственных растений Каракалпакии и их охрана.- Нукус.- Каракалпакстан.- 1991.- 135 с. 4. Ережепов С. Флора Каракалпакии, ее хозяйственная характеристика, использование и охрана.- Ташкент.- ФАН.- 1978.- 294 с.
3. Жоллыбеков Б. Изменение почвенного покрова приморской дельты Амударьи при аридизации. - Нукус.- Билим.- 1991. 6. Кабулов С.К. Изменение экосистем Южного Приаралья в связи с понижением Аральского моря.// Проблемы освоения пустынь.- 1990.- №2.- с. 77-84
4. Мамбетуллаева С.М., Турдымамбетов И.Т. Прогнозирование общей заболеваемости и специфичности нозологической структуры населения Южного Приаралья методом многофакторной нелинейной корреляции //Журнал «Проблемы освоения пустынь», Ашгабад, Туркменистан, 2010.- с.37-41